

Toshkent shahar statistika boshqarmasi



Toshkent shahrida 2019 yil yanvar-fevral oylari uchun sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining asosiy ko'rsatkichlari


RAQAMLAR:

- Sanoat mahsuloti hajmi **9 863,6 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **102,5 %** ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **3 532,9 mlrd.so'mni** va o'sish sur'ati **106,1 %** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmadagi ulushi **35,8 %** ni tashkil etdi.
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **68,3 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 9 863,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 102,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat hajmi indeksi 101,1%, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 96,3%, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash -129,9% va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 108,4% ga o'sishi hisoblanadi.



2019 yilning yanvar -mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % da



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, joriy yilning yanvar-mart oyida Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 295,4 mlrd.so‘mlik maxsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat maxsulotlarining 3,0 % ni tashkil etgan.

Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 90,3% va boshqa tog‘-kon sanoati faoliyati esa 106,3 % ga oshganini kuzatish mumkin.

2018 yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan (mln.sum)	Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019- yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan (mln.sum)	2018-yil yanvar-martga nisbatan % da
205872,6	<p data-bbox="560 1106 903 1178">Tabiiy gaz va xom neft qazib olish</p> 	257805,5	90,3
29596,6	<p data-bbox="552 1473 914 1512">Boshqa tog‘-kon sanoati</p> 	34050,6	106,3


Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqaradigan maxsulotlar hajmi 8431,8 mlrd.so‘mni va o‘tgan yilga nisbatan 101,1 % o‘shish sur‘atini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ining ulushi 4,5 % ni, o‘rta-yuqori texnologiyali – 23,6 %, o‘rta-quyi texnologiyali – 36,3 % , quyi texnologiyali – 35,6 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

■ Yuqori texnologiyali
■ O'rta-yuqori texnologiyali
■ O'rta-quyi texnologiyali
■ Quyi texnologiyali



O‘z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan koks va neft mahsulotlar 43,7% ga, boshqa transport asbob uskunalari ishlab chiqarish 27,1% ga kamaygan bo‘lsa, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish -28,2ga, mebel ishlab chiqarish 23,1 % ga, ichimliklar ishlab chiqarish

21,3 % ga , mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metal mahsulotlari 14,7% ga oshganligini kuzatamiz.

2018 yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan (mln.sum)	Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati	2019 yil yanvar-mart- ishlab chiqarilgan (mln.sum)	2018-yil yanvar-martga nisbatan %da
759083,2	Oziq-ovqat mahsulotlari 	894510,6	103,9
447634,8	Ichimliklar ishlab chiqarish 	593115,4	121,3
5302,5	Tamaki mahsulotlari 	6249,4	101,5

Tekstil mahsulotlari

402976,9



464067,2

94,2

Farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari

197718,1



229911,6

88,2

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar

46217,1



64624,0

128,2

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 886,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 9,0 % ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini mahsulotlari o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 129,9% ga ko'paygan.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 250,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 2,5 % ni) tashkil etganligi kuzatildi.

Bunda 2019 yil yanvar-mart oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,4 % ga ko'paygan.

Iste'mol tovarlarni ishlab chiqarish


Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishni qo'llab- quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahridagi sanoat korxonalaridan 3532,9 mlrd.so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi va 2018 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,1 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari, %



Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1098,2 mlrd.so'mga etkazilib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 31,1% , nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 2252,6 mlrd.so'm, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 63,8%, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 182,1 mlrd.so'm hisoblanib jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 5,2% tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-mart oyida tumanlarning jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Toshkent shahar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng kup ulush Yashnobod tumani (shahar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining (13,3 % ulushini), Olmazor (11,8 %), Chilonzor (10,7 %) va Sirg'ali (10,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish

davomi

Shu bilan birga eng kam ulush Bektemir (6,7 %) tumani, Yunusobod (7,0 %) va Yakkasaroy (7,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlarda iste'mol tovarlarni ishlab chiqarish hajmi (% , da)




Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish suratlari Bektemir tumani (109,8 %), Yashnobod tumani (109,6%) va Sergeli tumanlarida (108,0) kuzatilgan.

Eng kam o'sish sur'atlari esa Shayxontohur tumani(103,7%) va Mirzo Ulug'bek tumani (103,8%).

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Yashnobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 15,0 % ulushini), Mirzo Ulug'bek tumani (11,8 %), Mirobod tumani (10,6 %), Shayxontohur tumani (10,5%) va Olmazor tumani (10,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shuning bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy (5,1 %), Uchtepa (5,9 %), Bektemir (6,8 %), tumanlariga to'g'ri keladi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulush – 68,3 % ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yakkasaroy tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 94,2 %), Uchtepa (92,7%), Olmazor (88,6) va Yunusobod (85,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mirobod (47,2 %), Shayxontoxur (48,0%) va Mirzo Ulug'bek (50,5 %), tumanlarida kuzatildi.

Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da





Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 340 ta loyiha bo'yicha 404,3 trln.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 8,8 mln.AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 71 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2019 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 53 foizga kamaygan. Shu bilan birga, 2018 yil yanvar-martga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi pasayishi kuzatildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2018 yil yanvar-mart	2019 yil yanvar-mart
Loyihalar soni, birlik	441	340
Korxonalar soni, birlik	193	138
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	1777,9	404,3
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH doll	11,8	8,8
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	151	71

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (0371) 230-88-16